

O‘ZBEKISTON TARIXIY GEOGRAFIYASIDA ETNIK VA MADANIY O‘ZGARISHLAR

Yuldosheva Bibirajab

Buxoro davlat universiteti dotsenti

Rustamova Shaxinabonu

Buxoro davlat universiteti alabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola O‘zbekiston tarixiy geografiasida etnik va madaniy o‘zgarishlar masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘zbek xalqining turmush tarzi, madaniyati va etnik tarkibida yuz bergan transformatsion jarayonlar ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda xalqimizning shakllanish jarayoni, ularning boshqa xalqlar bilan o‘zaro munosabatlari hamda hayot tarzi keng o‘rganilgan. Shu bilan birga, maqolada nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo aholisining etnologiyasi va ularning madaniy rivojlanish xususiyatlari haqida qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan.

O‘tmishdan to hozirgi kungacha davom etib kelayotgan tarixiy jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, yer yuzida turli urf-odat va an‘analarga ega bo‘lgan xalqlar yashashiga qaramay, ularning rivojlanishi tabiiy-geografik omillar va xo‘jalik munosabatlari bilan chambarchas bog‘liq holda kechgan. Ushbu jarayonlar har bir xalqning o‘ziga xos etnomadaniy an‘analarining shakllanishiga sabab bo‘lgan.

Maqolada O‘zbekistonning geografik joylashuvi – Markaziy Osiyoning yuragi sifatida – tarix davomida ko‘plab etnik guruhlarining o‘zaro ta‘siri, migratsiyasi va aralashuvining markazi bo‘lib xizmat qilgani qayd etilgan. Bu jarayonlar mintaqa xalqlarining qo‘shilib ketishi, etnik va madaniy o‘zgarishlarning yuzaga kelishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Mazkur tadqiqot, tarixiy va madaniy-geografik jarayonlarni ilmiy asosda o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, milliy va mintaqaviy miqyosda yuksak ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar : etnik, etnologiya, etnogenez, elat, etnografik, etnos, millat, xalq, o‘zbek, geografik, ijtimoiy hayot, mintaqa, antropologik, siyosiy, tadqiqot, urf odat, anana, xo‘jalik, migratsiya, irq, fan, sak, massaget,

ABSTRACT: This article explores the issues of ethnic and cultural transformations in the historical geography of Uzbekistan, analyzing the changes in the lifestyle, culture, and ethnic composition of the Uzbek people through a scholarly lens. It delves into the process of nation-building, examining the interactions between the Uzbek population and other ethnic groups as well as their unique way of life. Furthermore, the article provides valuable insights not only into Uzbekistan but also into the ethnology of the broader Central Asian region and its cultural development.

Historical processes, spanning millennia, indicate that despite the diverse customs and traditions of the world’s ethnic groups, their development has been deeply intertwined with natural-geographical factors and economic relations. These factors have significantly influenced the formation of distinct ethnocultural traditions for each group.

The article highlights Uzbekistan's geographical location as the heart of Central Asia, which has historically served as a hub for the interaction, migration, and integration of numerous ethnic groups. These processes have played a pivotal role in the merging of various ethnicities and the emergence of ethnic and cultural transformations. This research contributes to the understanding of historical and cultural-geographical processes and holds significant value at both national and regional levels.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Keywords: ethnicity, ethnology, ethnogenesis, people, ethnographic, ethnos, nation, uzbek, geographic, social life, region, anthropological, political, research, custom, tradition, economy, migration, race, science, culture, massage

KIRISH

O'zbekiston tarixiy geografiyasi etnik va madaniy o'zgarishlar jihatidan boy tarixiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu hududning tabiiy-geografik joylashuvi, ya'ni Markaziy Osiyoning yuragi sifatida, turli xalqlarning migratsiyasi, madaniy aloqalari va iqtisodiy integratsiyasiga imkoniyat yaratgan. Natijada, Movarounnahr va Xuroson bo'ylarida yashagan xalqlarning etnik tarkibi va madaniy hayoti doimiy o'zgarishlarga uchrab kelgan. Ushbu o'zgarishlarni ilmiy asosda o'rganish, ularning tarixi va geografiyasini aniqlash bugungi kunda dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Qadimiy va o'rta asr manbalari bu borada asosiy tadqiqot manbasi sifatida ahamiyat kasb etadi. Zardushtiylarning *Avestosi*, Abu Bakr Narshaxiyning *Buxoro tarixi*, Mahmud Koshg'ariyning *Devonu lug'ati-turk*, Abu Rayhon Beruniyning *Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*, Sharofiddin Ali Yazdiyning *Zafarnomasi* va Muhammad Solihning *Shayboniynomasi* kabi asarlar Movarounnahr va Xuroson xalqlarining shajarasi, tili, dini, madaniyati hamda urf-odatlarini o'rganishda bebaho manbalardir. Ushbu yozma asarlar orqali qadimiy xalqlarning etnik shakllanish jarayonlari, madaniy aloqalari va o'zaro ta'siri haqida qimmatli ma'lumotlar olish mumkin.

Shu bilan birga, etnogenez masalalarini o'rganish nafaqat o'zbek xalqining, balki butun Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi va madaniy o'zgarishlarini chuqur anglashga yordam beradi. Yunon, xitoy, arab, eron va turk tillarida yozilgan manbalar xalqlarning tili, dini, urf-odatlari va an'alariga oid keng ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Etnologiyaning fan sifatida rivojlanishi bu jarayonlarni har tomonlama tahlil qilish imkonini yaratib, etnik va madaniy o'zgarishlarning zamonaviy jarayonlariga ham yoritish kiritadi.

Mazkur maqola O'zbekiston tarixiy geografiyasida yuz bergan etnik va madaniy o'zgarishlarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, qadimdan saqlanib kelayotgan yozma manbalar va ilmiy tadqiqotlarga asoslangan holda, mintaqaning boy madaniy merosi va tarixiy jarayonlarini yoritib beradi.

Metodlar

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy, tahlil, xoslik, tizimlik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib unda O'zbekiston tarixiy geografiyasida etnik va madaniy o'zgarishlar masalasi yuzasidan tarixiy va hozirgi vaziyatlar yuzasidan tahlil olib boriladi.

Tadqiqot natijalari

Mustaqillikka erishgandan so'ng, o'zbek xalqining etnik va etnologik tarixini o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etdi. Ushbu muammolarni chuqur o'rganish uchun keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilib, ko'plab asarlar va kitoblar yaratildi. Bugungi kunda ham ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar davom etmoqda.

Etnogenez va etnik tarix masalalarini tadqiq etishda akademik A. Asqarovning hissasi beqiyosdir. U arxeologik, etnografik va antropologik manbalarga tayanib, o'zbek xalqining shakllanish jarayonlarini bosqichma-bosqich o'rganib chiqdi. A. Asqarovning fikriga ko'ra, etnos biologik hosila emas, balki ijtimoiy hodisadir. U kishilik jamiyatining ma'lum bir taraqqiyot bosqichida shakllanib, o'z tarkibiga yangi etnik qatlamlarni qo'shib boradi. Biroq, mashhur turkiyshunos olim L. N. Gumilyev esa etnosni ijtimoiy hodisadan ko'ra bio-geografik hosila sifatida talqin qiladi va uning biosfera qonuniyatlariga bo'ysunishini ta'kidlaydi.

O'rta Osiyo xalqlari tarixi va madaniyatini o'rganish maqsadida keng miqyosli arxeologik va etnografik ekspeditsiyalar tashkil qilindi. Bu jarayonda mavjud ilmiy muammolar qaytadan

ko‘rib chiqilib, yechim topildi. Natijada, etnogenez masalasini hal qilishga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy asarlar, kitoblar va boshqa manbalar yaratildi.

M. Ermatovning ta‘kidlashicha, o‘zbek xalqining etnomadaniyati ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq shakllanib, keyingi ijtimoiy-tarixiy bosqichlarda yanada rivojlangan. Ko‘chmanchi, yarim ko‘chmanchi va o‘troq turmush tarzining uyg‘unlashuvi ana shunday belgilardandir. Bu yo‘nalishda K. Shoniyozovning tadqiqotlari alohida e‘tiborga loyiqdir. U o‘zbek xalqining etnogenezi va tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan fundamental ishlar muallifi bo‘lib, yuzdan ortiq ilmiy maqolalar va yirik monografiyalar yaratdi. Shoniyozovning fikricha, etnografiya fani hudud, til, iqtisod, madaniyat, tarixiy qismatning umumiyligi, diniy birlik kabi omillarni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Akademik A. Asqarovning fikricha, har bir xalq tarixi uning etnogenezi va etnik tarixi bilan uzviy bog‘liq. Shuning uchun etnogenez va etnik tarix masalalari tarix fanining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. S. P. Tolstov esa o‘zbek xalqining shakllanish jarayonini qadimiy va o‘rta asrlarda turli nomlar bilan atalgan qabilalar va elatlarning birlashuvi natijasi sifatida ta‘riflaydi.

Qadimgi O‘rta Osiyoda yashagan xalqlarning izlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida miloddan avvalgi VI–V asrlarda mavjud bo‘lgan qabila birlashmalari aniqlangan. Ulardan eng yirigi Sak qabilalari bo‘lib, ular uch asosiy guruhga bo‘lingan:

1. Saka tigraxauda – “o‘tkir bosh kiyimli saklar” nomi bilan tanilgan bu qabilalar Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimidan Orol dengizining shimoligacha bo‘lgan cho‘l hududlarida yashagan.

2. Saka tiaytaradaraya – “dengiz ortidagi saklar” deb atalgan bu guruh Kaspiy dengizi shimolida va Ural tog‘oldi mintaqalarida yashagan massaget qabilalari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

3. Saka xaumavarka – “muqaddas ichimlikka sig‘inuvchilar” sifatida tanilgan bu qabila asosan O‘rta Osiyoning shimoli-sharqiy hududlarida yashagan.

Ushbu tadqiqotlar orqali O‘zbekiston hududida qadimdan yashab kelgan xalqlarning etnik shakllanish jarayoni, madaniyati va turmush tarzi haqida kengroq tasavvur hosil qilish mumkin bo‘ldi. Mazkur izlanishlar, xalqimizning tarixini chuqurroq o‘rganish va etnografik merosni saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

O‘zbek etnologiyasi haqida so‘z yuritilganda, ayrim tadqiqotchilar ushbu atamani Oltin O‘rda xoni O‘zbekxon bilan bog‘laydilar. Ammo boshqa bir guruh olimlar bu qarashni rad etib, "o‘zbek" atamasining kelib chiqishini O‘zbekxongacha bo‘lgan davrga, xususan, Oq O‘rda hududi – G‘arbiy Sibir va Qozog‘istonning bir qismida yashagan turkiy qabilalarga bog‘laydi. Ushbu atama XII–XIV asrlarda xalqimizni shu nom bilan atash uchun ishlatilgan bo‘lib, o‘zbek xalqining shakllanishi uzoq tarixiy jarayonlarning mahsuli hisoblanadi.

O‘zbek xalqi qadimiy va boy madaniy merosga ega. Uning urf-odatlarini, marosimlari, san‘ati, og‘zaki ijodiyoti va turmush tarzi xalqning tarixiy o‘ziga xosligini ko‘rsatib beradi. Etnologik nuqtai nazardan, o‘zbek xalqining shakllanish jarayonida turkman, qozoq va qoraqalpoq xalqlari bilan aralashish kuzatilgan. Ammo bu xalqlar bir vaqtda shakllanmagan; biri erta, boshqasi esa kechroq paydo bo‘lgan. Qadimda ular “o‘zbek” yoki boshqa milliy nomlar bilan atalmasdan, umumiy “turkiy xalqlar” degan nom ostida ma‘lum bo‘lgan.

Turkiy xalqlar asosan ko‘chmanchi chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Ko‘chmanchilar o‘z chorvalarini o‘tlatish uchun keng yaylovlarga ko‘chib yurgan. Bunday migratsiya jarayonlari, ayniqsa, qurg‘oqchilik yoki boshqa tabiiy omillar natijasida tez-tez takrorlangan. Bu jarayonlar xalqlar o‘rtasida aralashish va yangi etnomadaniyat shakllanishiga olib kelgan. Masalan, iqtisodiy sabablar tufayli chorvadorlarning janubga, O‘rta Osiyoning qulay

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

savdo hududlariga ko‘chishi natijasida yangi madaniy aloqalar shakllangan. Bu jarayon turli xalqlar o‘rtasida yangi urf-odat va an‘analarning yuzaga kelishiga turtki bo‘lgan.

Etnologiyada asosiy tadqiqot obyektlari sifatida urf-odatlar, marosimlar va madaniy elementlar o‘rganiladi, chunki xalqning madaniy xususiyatlari orqali uning etnik kelib chiqishini tahlil qilish osonlashadi. Shuningdek, etnik jamoalarning irqiy xususiyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Irqiy kelib chiqish nafaqat genetik omillarga, balki yashash muhitining ta‘siriga ham bog‘liq. Masalan, o‘zbek xalqining kelib chiqishi murakkab tarixiy jarayon bo‘lib, qadimgi va ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarda amalga oshgan xalqlar aralashuvining natijasi sifatida shakllangan.

Tadqiqotlarga ko‘ra, O‘zbekiston va Markaziy Osiyo hududida yashagan qadimgi aholi yevropoid irqining janubiy (O‘rta yer dengizi) tarmog‘iga mansub bo‘lgan. Ayrim tadqiqotchilar esa o‘zbeklarni aralash irq – Pomir-Farg‘ona irqiga tegishli deb hisoblashadi. Ushbu antropologik xususiyatlar o‘zbek xalqining uzoq tarixiy jarayonlarda shakllanganligini va turli madaniyatlar bilan aralashib, o‘ziga xos ko‘rinish olganligini ko‘rsatadi.

Ko‘chmanchi chorvachilik va dehqonchilik turkiy xalqlarning asosiy iqtisodiy faoliyati bo‘lgan. Yaylovlarga qurg‘oqchilik tufayli keng migratsiya qilgan ko‘chmanchilar iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun O‘rta Osiyoning janubiy hududlariga ko‘chib kelgan. Ushbu jarayon natijasida xalqaro iqtisodiy va madaniy hamkorlik rivojlanib, o‘zbek xalqining etnik tarkibi va madaniyatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan.

O‘zbek etnologiyasining rivojlanishi va xalqning etnogenez jarayoni murakkab, ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, ko‘plab omillar bilan bog‘liq. Turkiy xalqlarning ko‘chmanchi hayoti, tabiiy-iqlimiy sharoitlar, migratsion jarayonlar va iqtisodiy aloqalar o‘zbek xalqining madaniy va etnik tarkibini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynagan. O‘zbek xalqining antropologik va madaniy xususiyatlarini o‘rganish orqali uning murakkab va boy tarixini yanada chuqurroq anglash imkoniyati yaratiladi.

Xulosa

O‘zbekiston tarixiy geografiyasida etnik va madaniy o‘zgarishlar uzoq tarixiy jarayonlarning natijasi bo‘lib, bu jarayonlar mintaqaning o‘ziga xos tabiiy-geografik joylashuvi, turli xalqlar migratsiyasi va madaniy aloqalari bilan uzviy bog‘liqdir. Turli arxeologik, etnografik va yozma manbalar asosida olib borilgan tadqiqotlar o‘zbek xalqining shakllanishi va etnogenez jarayoni ko‘p qatlamli va murakkab bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Xalqimizning boy madaniy merosi, qadimiy yozma manbalar va arxeologik yodgorliklar orqali turli xalqlarning madaniy ta‘sirini kuzatish mumkin. Qadimiy davrda va o‘rta asrlarda yaratilgan *Avesto*, *Buxoro tarixi*, *Devonu lug‘ati-turk* kabi yozma asarlar nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy va madaniy taraqqiyotini o‘rganishda bebaho manbalardir. Ushbu asarlar o‘tmishdan saqlanib qolgan etnomadaniy an‘analarni o‘rganishda va qadimiy xalqlarning tarixiy rivojlanishini yoritishda muhim o‘rin tutadi.

Etnogenez masalalari bo‘yicha akademik A.Asqarov, K.Shoniyozov va S.P. Tolstov kabi olimlarning tadqiqotlari xalqimizning etnik shakllanishi jarayonini o‘rganishda asosiy ilmiy poydevor yaratdi. Ushbu izlanishlar orqali qadimdan mavjud bo‘lgan turkiy qabilalar, ularning migratsiya jarayonlari va o‘zaro aralashuvi haqida qimmatli xulosalar chiqarildi. Ko‘chmanchi chorvachilik va dehqonchilikka asoslangan turkiy xalqlar madaniyati va iqtisodiy aloqalari yangi urf-odatlar va madaniyatlarining shakllanishiga turtki bo‘ldi.

O‘zbekiston hududida yashagan qadimiy xalqlarni antropologik jihatdan o‘rganish natijasida, ularning Yevropoid irqining janubiy tarmog‘iga yaqinligi yoki Pomir-Farg‘ona irqiga mansubligi aniqlangan. Bu xalqimizning shakllanishida turli irqiy va madaniy omillarning birlashganligini ko‘rsatadi.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Maqola natijalariga ko'ra, O'zbekistonning tarixiy geografiyasi va etnologiyasi bugungi kunda nafaqat ilmiy, balki milliy o'zlikni anglashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqimizning tarixi, madaniyati va turmush tarzini o'rganish orqali biz faqat o'tmishni anglabgina qolmay, kelajak avlod uchun boy tarixiy va madaniy merosni asrab-avaylash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Asqarov A. O'zbek xalqi etnogenez va etnik tarixning ba'zi bir nazariy va ilmiy metodologik asoslari. // O'zbekiston tarixi. - 2002. - B. 54–60.
2. Gumilyev L. N. Etnosfera. - 1993. - B. 41.
3. Sagdullayev A. S. O'zbekiston tarixi. I kitob. - Toshkent: Donishmand ziyosi, 2021. - B. 581.
4. Ashirov A. Etnologiya. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Yangi Nashr, 2014. - B. 167.
5. Ziyoyeva H. D. O'zbekiston tarixi. - Toshkent: O'zbekiston, 2023. - B. 141.
6. Yuldosheva B. M., qizi Islomova S. J. IX-XIII asrlarda Movarounnahrning siyosiy-tarixiy geografiyasi //Miasto Przyszołci. – 2023. – T. 41. – C. 132-135.
7. Ashirova A., Atadjonov Sh. Etnologiya. O'quv qo'llanma. - Toshkent, 2007. - B. 53.
8. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. - Toshkent: O'zbekiston, 2015. - B. 78.
9. Shoniyozov Sh. K. O'zbek xalqining etnogeneziga oid ba'zi nazariy masalalar. - 1983. - B. 292–295.
10. Sh Y. D. Ensuring Sustainable Growth of Uzbekistan's Economy on the Basis of Efficient Use of Investments //Journal of Marketing and Emerging Economics. – 2021. – T. 1. – №. 2. – C. 1-4.
11. Nishonova O. O'zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati va funksiyalari. - Toshkent, 2016. - B. 28.
12. Yusupova U. M., Sultonova M. K. Role of pedagogical technologies in the educational process //Экономика и социум. – 2020. – №. 2 (69). – C. 70-72.
13. Salimov T. O. Jahon xalqlari etnologiyasi. O'quv qo'llanma. - Toshkent, 2019. - B. 344.
14. Utayeva F. Arxeologiya va etnologiya. - Buxoro, 2022. - B. 54.
15. Fayzullayeva M. Arxeologiya va etnologiya asoslari (Etnologiya). - Termiz, 2017. - B. 83.
16. Soliyevna S. S. So'g'd konfederatsiyasining shakllanish jarayoni //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2024. – T. 20. – №. 4. – с. 174-180.
17. Utayeva F. et al. Mustaqillik yillarida Buxoro to'qimachilik sanoatida modernizatsiyalashuv jarayonlari //Farg'ona davlat universiteti. – 2023. – №. 6. – с. 61-61.
18. Sagdullayev A. S. Markaziy Osiyo tarixi va madaniyati. - Toshkent, 2023. - B. 88.
19. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. - Toshkent, 2001.